



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

**MAHMUD QOSHG‘ARIY BARSKONIY MEROSINI O‘RGANISHNING XALQARO  
TARIXI: O‘RTA OSIYO, TURK VA G‘ARB QOSHG‘ARIYSHUNOSLIGIDAGI  
ASOSIY YO‘NALISHLAR (XX–XXI ASRLAR)**

**Ibragimova Maftuna Abdulazizovna**  
Angren universiteti, o‘qituvchi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada XI asrning buyuk turk olimi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ot at-turk” asarini o‘rganish tarixi xalqaro miqyosda tahlil qilinadi. Unda O‘rta Osiyo, Turkiya va G‘arb (jumladan, Yevropa va Amerika) olimlarining qoshg‘ariyshunoslik rivojiga qo‘shgan hissalarini izchil ko‘rib chiqiladi. O‘zbek, qozoq, rus, turk, polyak, britan, fransuz va amerikalik tadqiqotchilarning “Devon”ga bag‘ishlangan ishlari hamda ularda yoritilgan ilmiy muammolar — kartografik meros, lingvistik metodologiya, tarixiy manbashunoslik va etnografik ma‘lumotlar tahlili — muhokama etiladi. Tadqiqot qoshg‘ariyshunoslik ilmiy merosining yaxlit manzarasini yaratishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mahmud Qoshg‘ariy, “Devonu lug‘ot at-turk”, qoshg‘ariyshunoslik, turk filologiyasi, O‘rta Osiyo sharqshunosligi, kartografik meros, Abdurauf Fitrat, Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on, Robert Dankoff, Eduard Tryarskiy.

**МЕЖДУНАРОДНАЯ ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ НАСЛЕДИЯ МАХМУДА КАШГАРИ  
BARSKONI: OSNOVNYE NAПРАВЛЕНИЯ В ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОМ,  
TYURKSKOM И ЗАПАДНОМ КАШГАРОВЕДЕНИИ (XX–XXI ВВ.)**

**Ибрагимова Мафтуна Абдулазизовна**  
Ангренский университет, преподаватель

**Аннотация**

В статье рассматривается история изучения труда великого тюркского учёного XI века Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-тюрк» в международном контексте. Анализируется вклад учёных Средней Азии, Турции и Запада (включая Европу и США) в развитие кашгароведения. Обсуждаются исследования узбекских, казахских, русских, турецких, польских, британских, французских и американских учёных, а также поднимаемые ими научные проблемы — картографическое наследие, лингвистическая методология, историческое источниковедение и анализ этнографических данных. Работа направлена на формирование целостного представления о научном наследии кашгароведения.

**Ключевые слова:** Махмуд Кашгари, «Диван лугат ат-тюрк», кашгароведение, тюркская филология, среднеазиатское востоковедение, картографическое наследие, Абдурауф Фитрат, Ахмад Заки Валиди Тоган, Роберт Данкофф, Эдуард Триярский.

**THE INTERNATIONAL HISTORY OF STUDYING THE HERITAGE OF MAHMUD  
KASHGARI BARSKANI: MAIN TRENDS IN CENTRAL ASIAN, TURKIC, AND  
WESTERN KASHGAR STUDIES (20TH–21ST CENTURIES)**

**Ibragimova Maftuna Abdulazizovna**  
Angren University, Teacher

**Abstract**

This article examines the international history of studying the work “Divanu lughat at-turk” by the great 11th-century Turkic scholar Mahmud Kashgari. It analyzes the contributions of

Central Asian, Turkish, and Western (including European and American) scholars to the development of Kashgari studies. The study discusses works by Uzbek, Kazakh, Russian, Turkish, Polish, British, French, and American researchers, as well as key research issues such as cartographic heritage, linguistic methodology, historical source studies, and ethnographic analysis. The article aims to present a comprehensive overview of the scholarly heritage of Kashgari studies.

**Keywords:** Mahmud Kashgari, “Divanu lughat at-turk,” Kashgari studies, Turkic philology, Central Asian Oriental studies, cartographic heritage, Abdurauf Fitrat, Ahmad Zaki Validi Togan, Robert Dankoff, Eduard Tryjarski.

Mahmud Qoshg‘ariy (taxminan 1029–1038-yillarda tug‘ilgan) XI asrda yashab ijod etgan turk tilshunosi, leksikografi va kartografi bo‘lib, uning “Devonu lug‘otit turk” asari jahon turkologiyasining eng muhim manbalaridan biri sifatida e‘tirof etilgan. Ushbu maqola buyuk alloma merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy tadqiqotlarni O‘rta Osiyo, Turkiya, Yevropa va Amerika qoshg‘ariyshunosligi misolida tarixiy-tahliliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi.

O‘zbek ziyolilari orasida Mahmud Qoshg‘ariy merosini ilk bor ilmiy jihatdan o‘rganganlardan biri Abdurauf Fitrat (1885, Buxoro — 5.10.1938, Toshkent) bo‘lgan. Olim va publitsist Fitrat stalincha davrda nohaq ravishda “panturkchilarning chig‘atoychilar tarmog‘i vakili” sifatida qatag‘onga uchragan. Uning “Eng qadimgi turk adabiyotining namunalari” nomli o‘zbekcha asarida Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”iga ham e‘tibor qaratilgan [1].

Albatta, Fitratning ayrim chalkash va noaniq talqinlari uning zamondoshi, ko‘p tillarni bilgan mashhur turkolog S.Ye. Malov tomonidan asosli ravishda tanqid qilingan. Masalan, “Devon”dagi ishqiy she‘r satrlaridan birida uchraydigan “булнады мени қарак” (“meni bir qarashda asir etdi”, “ko‘zi bilan rom qildi”) mazmunidagi iborani Fitrat “yo‘lda qaroqchi tutib oldi meni” deb tarjima qilganini S.Ye. Malov to‘g‘ri tanqid qilib, bunda gap yoshi ko‘ldek tiniq ko‘z haqida ketayotganini ta‘kidlagan [2]. Shunga qaramay, Fitrat Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”ini adabiy meros sifatida Markaziy Osiyo xalqlariga tanishtirgan peshqadam olim sifatida yuksak ehtirom bilan tilga olinishi lozim.

1930-yillarda stalincha qatag‘on qurboni bo‘lgan olimlardan biri — qozog‘istonlik Xalel Dosmuhameduli (qozoqcha Халел Досмұхамедұлы; ruscha Xalel Dosmuhamedov; o‘zbekcha Xalil Do‘stmuhammedov; 24.04.1883–1939) ham o‘z maqolalarida Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”iga murojaat qilgan. U “Devon”dagi kartada turk etnoslarining joylashuvi ko‘rsatilganini, shuningdek, musulmon xalqlari tilshunosligida ilk bor filologik ma‘lumotlar geografik tasvir bilan uyg‘unlashtirilganini alohida ta‘kidlagan [3]. X. Dosmuhameduli ham siyosiy ta‘qiblar natijasida 1939-yil 24-apreldagi harbiy tribunal hukmi bilan otuv jazosiga hukm qilingan.

Arabshunoslikning rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan Viktor Ivanovich Belyaev (1902–1976) 1939-yilda yozgan “Turkmanlar va Turkmaniston tarixi bo‘yicha materiallar” to‘plamiga kirish so‘zida Mahmud Qoshg‘ariy asarining tarixiy manba sifatidagi alohida ahamiyatini ta‘kidlagan.

Mahmud al-Qoshg‘ariyning kartografik merosi Yevropa olimlarining ham e‘tiborini tortgan. Musulmon kartografiyasini o‘rgangan taniqli nemis olimi Konrad Miller (1844–1933) o‘zining “Arab kartalari” nomli fundamental asarining 5-jildida Mahmud Qoshg‘ariy xaritasini alohida tadqiq qilgan. Albatta, uning tadqiqotida qator noto‘g‘ri geografik talqinlar ham uchraydi. Masalan, Barsxonni “Bursakan” shaklida berib, uni Norin shahri o‘rniga joylashtiradi, Qo‘chor-Boshi toponimini esa umuman boshqa ikki joy nomi sifatida talqin qiladi. Ushbu xatolarning asosiy sababi — xaritaning “Devon” matni bilan qiyoslamaganligidir [4].

Yana bir nemis sharqshunosi Albert Xermann (Albert Herrmann; 20.1.1886–19.4.1945) 1935-yilda Berlinda chop etilgan maqolasini Mahmud Qoshg‘ariy xaritasiga bag‘ishlagan. U xaritaning alohida originalligini ta‘kidlar ekan, undagi Jabarqa toponimini hozirgi Yaponiya

hududi bilan bog'lash haqidagi ilk taxminni ilgari surgan [5].

Keyinchalik shu kartografik mavzuga rus sovet olimi Ivan Ivanovich Umnyakov (1890–1976) ham 1940-yilda murojaat qiladi. Uning fikricha, “Devon”dagi xaritaning muallifi boshqa shaxs bo'lishi ham mumkin. Biroq I.I. Umnyakov ham A. Xermann singari bu xaritaning musulmon kartografiyasidagi o'ziga xos o'rnini alohida ta'kidlaydi va undagi toponimlarning ro'yxatini tuzadi. Uning ayrim kuzatuvlari qo'shimcha aniqlikni talab qilsa-da, umuman olganda, maqola akademik I.Yu. Krachkovskiy tomonidan yuqori baholangan [6][7].

Turkiyadagi Mahmud Qoshg'ariy haqidagi tadqiqotlar mashhur boshqird olimi va jamoat arbobi Ahmad Zakiy Validiy Tog'on (Zeki Velidi Togan; 1890–1970) nomi bilan chambarchas bog'liq. U 1932-yilda “Mahmud Qoshg'ariyga oid kuzatishlar” nomli maqolasini e'lon qilgan [8].

1927-yildan boshlab Istanbul universitetida professor sifatida “Umumiy turk tarixi” fanidan dars bergan olim 1944–1945-yillarda “panturkist” sifatida ayblanib qamoqqa tashlangan davrida “Umumiy turk tarixiga kirish” nomli fundamental asarini yozgan. Ushbu monografiyada u Mahmud Qoshg'ariyning “Devon”idagi ma'lumotlardan Rashididdin va boshqa sharq tarixchilari asarlari bilan qiyosiy tarzda keng foydalangan [9].

Kilisli Rifat Bilgening kichik maqolalari ham o'z davridagi qoshg'ariyshunoslik sa'y-harakatlarining muhim namunalari hisoblanadi. U o'z maqolalarida “Devonu lug'otit turk”ning muqaddimasi, yozilish sanasi hamda asarning topilish tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar va kuzatuvlarni e'lon qilgan [10].

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Turkiyada qoshg'ariyshunoslik bo'yicha ko'plab asarlar yaratildi. Ular orasida Mehmet Shakir Ulkütashirning (Mehmet Şakir Ülkütaşır; 1894–1981) “Ulug' turk tilshunosi Qoshg'arli Mahmud” nomli monografiyasi (1946) alohida o'rin tutadi. 1972-yilda qayta ishlanib nashr qilingan ushbu asar Mahmud Qoshg'ariyning hayoti, shaxsi va asari mazmunini tizimli ravishda yoritgan birinchi turkiyalik monografik tadqiqot sifatida qadrlanadi [11].

Besim Atalay boshlab bergan indeks-lug'at tuzish an'anasi keyinchalik Ali Dehri Dilchin (1901–1977) tomonidan davom ettirildi. U 1957-yilda “Arab alifbosi bo'yicha ‘Devonu lug'otit turk’” nomli asarini “Turk Tarix Jamiyati” orqali nashr qildi. Ammo ushbu lug'atda ayrim kamchiliklar mavjud bo'lib, muallif Mahmud Qoshg'ariy qo'lyozmasining asl nusxasiga emas, balki Kilisli Rifat Bilge tayyorlagan 1915–1917-yillardagi arabcha uch jildlik nashrga tayangan [12].

Ali Chichekli (Ali Çiçekli; 1932-y. tug'ilgan) esa 1970-yilda Istanbulda Mahmud Qoshg'ariyning hayoti va merosiga bag'ishlangan yana bir umumlashtiruvchi asarini nashr qildi. Ushbu tadqiqotda “Devon”dagi lingvistika, yozuv, tabobat, boshqaruv, harbiy ish, huquq, iqtisod, kiyim-kechak, o'yinlar, urf-odatlar, din va e'tiqodlar, taomlar kabi turli sohalarga oid ma'lumotlar keng tahlil qilingan [13]. Mazkur asar qoshg'ariyshunoslikda sezilarli iz qoldirdi.

1972-yil 27–29-sentyabr kunlari Turkiyada “Turk Til Jamiyati”ning 40 yilligi va “Devonu lug'otit turk” asarining 900 yilligiga bag'ishlangan I Turk tili ilmiy qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda turkiyalik va boshqa mamlakatlardan tashrif buyurgan olimlar bilan bir qatorda sobiq Sovet Ittifoqidan A.N. Kononov, B.O. Oruzbayeva kabi taniqli olimlar ham ma'ruza qildilar [14].

Sevim Tekelining 1985-yilda nashr etilgan kichik broshyurasi Mahmud Qoshg'ariy va Piri Reisning kartografik meroslarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Turkiya Madaniyat vazirligi tomonidan Mahmud Qoshg'ariy qo'lyozmasining rangli fotofaksimile nusxasining 1990-yilda nashr etilishi esa butun dunyodagi qoshg'ariyshunoslar, ayniqsa matnshunoslar uchun nihoyatda muhim ilmiy voqea bo'ldi [15].

Qoraxoniylar tarixining yirik tadqiqotchilaridan biri, xalqaro Qirg'iz-Turk Manas universitetining sobiq rektori professor Reşat Genç (1941-y. tug'ilgan) ham Mahmud Qoshg'ariyning “Devon”idan muhim tarixiy manba sifatida foydalandi. U 1974-yilda Anqarada “XI asrdagi turk mamlakatlarining siyosiy, etnik, ijtimoiy va madaniy holati ‘Devonu lug'otit turk’ muallifi Qoshg'arli Mahmud ma'lumotlariga ko'ra” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya

qilgan. Keyinchalik ushbu tadqiqot monografiya shaklida chop etilib, Pekinda uyg'ur tiliga ham tarjima qilingan [16][17][18].

Yevropa va Amerika tadqiqotlariga murojaat qilar ekanmiz, qoshg'ariyshunoslikka yangi hissa qo'shgan yirik olimlardan biri ukrain sharqshunosi Omelyan Pritsak (1919–2006) bo'lganini ta'kidlash lozim. Uning Qoraxoniylar tarixini aniqlashga va Mahmud Qoshg'ariyning hayotiga bag'ishlangan maqolalari bugungi kungacha ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ayniqsa, uning 1953-yilda yozilgan “Mahmud Qoshg'ariy kim?” nomli maqolasida Mahmud Qoshg'ariyning XI asrda Issiqko'l bo'yidagi Barsxon bekligini boshqargan Husaynning o'g'li bo'lgani, 1029–1038-yillar oralig'ida tug'ilgan bo'lishi ehtimoli haqidagi muhim ilmiy taxmin ilgari surilgan [19].

Fransuz sharqshunosi Lui Bazan (Louis Bazin; 1920–2011) 1957-yilda Mahmud Qoshg'ariyning “Devon”ini yozish sanasi haqida o'ziga xos fikr bildirgan. Uningcha, asar 1083-yil 27-oktyabrda, ya'ni hijriy 476-yil jumoda ul-uxro oyining 12-kunida yakunlangan. Bu xulosaga kelish uchun u matndagi “466” raqamini “476” tarzida “tuzatish” kerakligini taklif etadi [20].

G'arbiy Yevropa turkologiyasida britaniyalik Jerard Klausonning (Sir Gerard Clauson; 1891–1973) 1972-yilda chop etilgan “O'n uchinchi asrgacha bo'lgan turk tilining etimologik lug'ati” asari ham katta ilmiy qiziqish uyg'otdi. Unda Mahmud Qoshg'ariyning lug'ati asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qilgan. “Islom entsiklopediyasi”ning yangi inglizcha nashrida majar olimi Dyord Xazai (György Hazai; 1932–2016) yozgan maqola ham Mahmud Qoshg'ariy merosini umumlashtiruvchi muhim kichik tadqiqot sifatida e'tirof etiladi [21].

Amerikalik sharqshunoslar orasida Robert Dankoff va Jeyms Kelli Mahmud Qoshg'ariy merosini o'rganishda alohida ajralib turadi. Robert Dankoff 1971-yilda Garvard universitetida “Devonu lug'otit turk”ning etnografik tadqiqi mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Uning qator muhim ilmiy maqolalari Mahmud Qoshg'ariyning ijodi va “Devon”dagi ma'lumotlarning tahliliga bag'ishlangan. Jeyms Kelli esa o'z maqolalarida Mahmud Qoshg'ariyning lingvistika fanidagi o'ziga xosligini, xususan, Ishoq al-Forobiy lug'atshunoslik an'anasini davom ettirgan holda turk tiliga oid yangi metodik qo'shimchalar kiritganini yoritgan [22].

Manbashunos sifatida keng tanilgan turkolog Robert Dankoff “Devon”dagi turk urug'lari, ularning qarindoshlik tizimi, e'tiqodlari, og'zaki ijodi va boshqa ko'plab masalalarni tadqiq qilgan. Uning Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarini ingliz tiliga tarjima qilishi ham qoshg'ariyshunoslik bilan uzviy bog'liq muhim ilmiy xizmatlardan biri sanaladi [23].

Varshavalik professor Eduard Triyarskiyning 1993-yilda chop etilgan “Turk xalqlari madaniyati Qoshg'ardan chiqqan Mahmud ma'lumotlariga ko'ra” nomli yirik monografiyasi ham qoshg'ariyshunoslikka salmoqli hissa bo'ldi. Asarda “Devon” ma'lumotlari asosida turk xalqlarining tabiat haqidagi bilimlari, transporti, savdosi, ijtimoiy tuzilishi, urug'chilik tizimi, huquqi, harbiy tuzilishi, diniy e'tiqodlari, o'yin-kulgilari, musiqasi, raqslari, yozma va og'zaki adabiyoti, tillari va lahjalari chuqur tahlil qilingan [24].

G'arbdagi qoshg'ariyshunoslik bo'yicha barcha yangi tadqiqotlarni sanab o'tish mushkul. Faqat shuni ta'kidlash mumkinki, so'nggi yillarda matnning ichki qatlamlariga chuqur kirib boruvchi, tekstologik muammolarga e'tibor qaratadigan tadqiqotchilar soni ortib bormoqda. Ular orasida berlinlik sharqshunos Klaus Shyonig (Claus Schönig) alohida ajralib turadi. U 2004-yilda chop etilgan inglizcha maqolasida “Devon”dagi etnonim va toponimlarni, jumladan, “turk”, “chigil”, “chin”, “machin”, “tat”, “tavg'ach” kabi terminlarning turli ma'nodagi qo'llanishini ehtiyotkorlik bilan tahlil qiladi. Shuningdek, u “Devon”dagi dunyo xaritasini XIII asrdagi ko'chiruvchi aniq nusxalab ko'chirmagan bo'lishi mumkinligi haqidagi taxmini ham ilgari suradi. Uningcha, xarita asardagi etnologik va geografik ma'lumotlarni tasvirlash uchun keltirilgan qo'shimcha ilova bo'lgan [25].

Mahmud Qoshg'ariyning tug'ilgan yili masalasida ayrim urumchilik tadqiqotchilar ilgari surgan 1008-yil sanasi ilmiy jihatdan ishonchli emasligini ko'rsatishga harakat qilinadi. Shunga

qaramay, 2008-yilda Turkiyada YuNESKO ko‘magida Mahmud Qoshg‘ariyning shartli 1000 yilligi keng nishonlandi. Ushbu tadbirning eng katta foydasi — qoshg‘ariyshunoslik yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan olimlarni bir ilmiy forum atrofida birlashtirish imkonini berganidir [26].

Xitoyning g‘arbiy qismidagi Sharqiy Tyan-Shan, hozirgi Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayonida Mahmud Qoshg‘ariy merosi bilan tanishish urinishlari XX asrning 20–30-yillarida boshlangan. G‘ayratjon Usmonning ma‘lumotiga ko‘ra, uyg‘ur ziyolisi Abdulqodir Damollam (1862–1924) 1920-yildan keyin Qashqarda o‘z uyi yonida kutubxona ochgan bo‘lib, unda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon”ining Kilisli Rifat Bilge tomonidan Istanbulda toshbosma usulida chop etilgan uch jildlik nusxasi ham saqlangan [27].

Sharqiy Tyan-Shandagi milliy-ozodlik va demokratik harakatlar vakillaridan biri Muhammad Amin Bug‘ra (1901–1965) ham Kobulda yashagan paytida 1940-yilda “Sharqiy Turkiston tarixi” asarini yozgan. Ushbu kitobda u Mahmud Qoshg‘ariyning “turk yurtlarini kezib, turk tillari va xalq adabiyotini yig‘gan” olim sifatida e‘tirof etadi, garchi uni matnda “Mahmud ibn Muhammad” deb noto‘g‘ri atagan bo‘lsa-da [28].

Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari XX asr boshlaridan buyon xalqaro ilmiy hamjamiyatning doimiy e‘tibor markazida bo‘lib kelmoqda. O‘zbek, qozoq, rus va sovet olimlari ushbu merosni Markaziy Osiyo xalqlariga tanishtirish va uning lingvistik hamda adabiy qiymatini asoslashda muhim hissa qo‘shganlar. Turk qoshg‘ariyshunoslari esa “Devon”ning to‘liq tanqidiy nashrlarini tayyorlash, lug‘at indekslarini tuzish va monografik tadqiqotlar yaratish orqali fan tarixida o‘chmas iz qoldirganlar. Yevropa va Amerika olimlarining tadqiqotlari esa asarning kartografik, etnografik va tekstologik jihatlarini yangi metodologik yondashuvlar asosida ochib berdi. Sharqiy Tyan-Shandagi uyg‘ur madaniy muhitida ham “Devon” bilan tanishish va uni tarqatish jarayonlari XX asrning birinchi yarmidan boshlangan. Shunday qilib, qoshg‘ariyshunoslik ko‘p millatli va ko‘p tilli xalqaro ilmiy an‘ana bo‘lib, uning markazida Mahmud Qoshg‘ariyning o‘lmas merosi turadi. Ushbu meros bugungi kunda ham o‘z yangiligi, dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Fitrat A. Eng qadimgi turk adabiyotining namunalari. — Toshkent, 1927. — B. I–VIII, 11–124, I–II.
2. Malov S. Ye. [Retsenziya:] Fitrat A. Eng qadimgi turk adabiyotining namunalari. — B. 215–216.
3. Belyaev V. I. Kirish so‘zi // Turkmanlar va Turkmanistonning tarixi bo‘yicha materiallar. — 1939.
4. Miller K. Mappae Arabicae. — Bd. 5. — 1-qism. — B. 142–148.
5. Hermann A. Eng qadimgi turk dunyo xaritasi (1076-y.) // Imago Mundi. — Berlin, 1935.
6. Umnyakov I. I. Eng eski turk dunyosi xaritasi. — B. 105.
7. Krachkovskiy I. Yu. Arab geografik adabiyoti. — B. 268–269.
8. Xusainov G. B. Axmetzaki Validov. — B. 3–11.
9. Togan A. Z. V. Umumiy turk tarixiga kirish. — Istanbul, 1946;
10. Togan A. Z. V. Devonu lug‘otit turkda tarix va geografiya.
11. Kilisli Rif‘at Bilge maqolalari // Turkiyat Mecmuasi. — 6-jild. — B. 355–360;
12. Yeni Sabah. — 1945. — 30-sentabr; 4, 7, 14, 18-oktabr.
13. Ülkütaşır M. Ş. Buyuk turk tilshunosi Koshg‘ariy Mahmud. — Istanbul, 1946;
14. 2-nashr. — Ankara, 1972.
15. Dilçin D. Arab alifbosi asosida Devonu lug‘otit turk indeksi. — Ankara, 1957.
16. Çiçekli A. Koshg‘ariy Mahmud: hayoti, asarlari va g‘oyalari. — Istanbul, 1970.
17. Turk til jamiyatining 40 yilligi va “Devonu lug‘otit turk”ning 900 yilligiga bag‘ishlangan I Turk tili ilmiy qurultoyi materiallari. — 1972-yil 27–29-sentabr.
18. Tekeli S. Dastlabki yapon va turk dengizchilari xaritalari: Piri Reis va Koshg‘ariy Mahmud

xaritalari. — Ankara, 1985.

19. Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk (faksimile nashr). — Ankara: Madaniyat vazirligi, 1990.
20. Genç R. Koshg'ariy Mahmudga ko'ra XI asr turk dunyosi. — Ankara, 1997.
21. Genç R. "Turkiy tillar devoni"da XI asr turk dunyosi. — Pekin, 2010.
22. Pritsak O. Qoraxoniylar; Mahmud Koshg'ariy kim?; O'rta asr Yevroosiyo tarixi bo'yicha tadqiqotlar.
23. Bazin L. Devonu lug'otit turkning yozilish sanalari haqida // Ural-Altaysche Jahrbücher. — 1957. — B. 24–25;
24. Bazin L. Turklar. — B. 384–387.
25. Clauson G. XIII asrgacha bo'lgan turk tilining etimologik lug'ati. — Oxford, 1972.
26. Kelly J. M. Devonu lug'otit turk manba sifatida;
27. O'rta asr turk tilida "til" tushunchasi haqida;
28. Koshg'ariy lingvistik nazariyasining kelib chiqishi haqida mulohazalar.
29. Dankoff R. Koshg'ariy va qabilalar;
30. Koshg'ariy va turklar e'tiqodlari;
31. Uch turkiy she'riy sikl.
32. Tryjarski E. XI asrda Koshg'ariy Mahmud asarlari asosida turkiy xalqlar madaniyati. — Varshava, 1993.
33. Schönig C. Devonu lug'otit turkdagi murakkab va bahsli o'rinlar haqida // Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hungaricae. — 2004. — B. 35–56.
34. Koshg'ariy Mahmud tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium materiallari / tahrirchi M. Kalkishim. — Rize, 2008.
35. Gayretcan O. XIX–XX asrlarda uyg'ur madaniyati tarixida Koshg'ariy Mahmud.
36. Buğra M. A. Sharqiy Turkiston tarixi. — Shrinagar; qayta nashr: Ankara, 1987. — B. 222.